



2020- yil yanvar-avgust oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari


Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida jami **11 603 449,0** mld. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2019-yilning yanvar–avgust oylariga nisbatan **100,8 %** ni tashkil etdi.



2020- yil yanvar- avgust oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.

Ma‘lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1-sentabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 7,7 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **113,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **122,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringning **121,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,5 %**) o'sishidir.




**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari
soni (birlikda)**

	holatiga ko‘ra:		O‘tgan yilga nisbatan, % da
	01.09.2019- yil	01.09.2020- yil	
Toshkent sh.	6589	7723	117,2
<i>tumanlar</i>			
Bektemir	133	168	126,3
Mirzo Ulug`bek	865	979	113,2
Mirobod	565	684	121,1
Olmazor	564	629	111,5
Sergeli	422	530	125,6
Uchtepa	494	571	115,6
Chilonzor	878	1011	115,1
Shayxontohur	514	612	119,1
Yunusobod	868	1027	118,3
Yakkasaroy	697	802	115,1
Yashnobod	589	710	120,5



**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da
01.08.2020- yil holatiga ko‘ra**



Ma‘lumot uchun: shaharda soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan qurilish korxonalari Yunusobod tuman (13,3 %), Chilonzor tuman (13,1 %) va Mirzo Ulug'bek (12,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **2 918,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **108,0 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,2 %** punktga ko'payib, **25,1 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shayxontohur tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,8 %** i yoki 2019- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **172,8 %**), Mirobod (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **16,0 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **65,9 %**), va Yunusobod tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,2 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **81,02 %**) ga to'g'ri keldi.



**Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona
va mikrofirmalarning ulushi, % da**



Kichik korxona va mikrofirmalar

■ 2019- yil yanvar-avgust

■ 2020- yil yanvar-avgust


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **64,5 %** i to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **1,9 %** punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan **104,6 %** ni tashkil etgan holda **7 486,6** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 10,3 % ni tashkil etdi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 % punktga kamaygan yoki 119,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 72,5 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi

ulushi % da, mldr. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **325,4** mldr. so'm yoki 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **60,9 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **11 278,0** mldr. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **102,8 %** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **2,8 %** va **97,2 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2020- yil
yanvar-avgust

Toshkent shahrida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-avgust

68,5 %

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlaringning **68,5 %** i yoki **7951,0** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

29,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2320,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **29,2 %** ni tashkil etdi.

61,2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **4867,4** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **61,2 %** ni tashkil etdi.

9,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **763,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **9,6 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-avgust oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Toshkent sh.	11 603,4	100,8	100,0
<i>tumanlar</i>			
Bektemir	536,65	100,5	4,6
Mirzo Ulug'bek	1 220,30	100,7	10,5
Mirobod	1 321,08	100,7	11,4
Olmazor	1 329,97	100,9	11,5
Sergeli	851,85	100,7	7,3
Uchtepa	592,05	100,9	5,1
Chilonzor	1 287,31	101,1	11,1
Shayxontohur	1 057,17	100,9	9,1
Yunusobod	1 403,26	101,0	12,1
Yakkasaroy	1 112,35	100,7	9,6
Yashnobod	891,46	100,6	7,7

*Tumanlar bo'yicha taqsimlangan hajjni qo'shgan holda



Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2019- yil yanvar-avgust

19,7




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

19,1



Fuqarolik obyektlarini
qurish

61,2



Bino va inshootlarni
qurish

21,3



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

20,6



Fuqarolik obyektlarini
qurish

58,1



Bino va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **18,2 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019-yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko'payib, **64,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,0 %** punktga kamayib, **17,8 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **53,8 %** ni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **11,9 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **46,2 %** (**11,9 %** punktga o'sish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,5 %** punktga ko'paydi va **16,4 %** ni tashkil etdi. Qolgan **83,6 %** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,5 %** punktga kamaydi.





Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Shayxontohur (tumandagi qurilish hajmining 68,5 % ni tashkil etdi) va Mirobod (mos ravishda 35,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-avgust oylarida

Eng yuqori hajm
(mlrd. so'm)

Yunusobod
1 403,3

1

2

Olmazor
1329,9

Mirobod
1321,1

3



Kichik hajm
(mlrd. so'm)

Sergeli
851,8

2



1

Uchtepa
592,5

Bektemir
536,6

3



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: D.Rustamov

Aloqa telefoni: (71) 203-88-19